



Shoxina BAXADIROVA,
Toshkent Amaliy fanlar universiteti erkin tadqiqotchisi
E-mail: shoxida@mail.ru

Pedagogika fanlari doktori, professor T.Egamberdiyeva taqrizi asosida

USING INTERACTIVE METHODS IN ONLINE LESSONS IN DEVELOPING ENGLISH SPEAKING SKILLS

Annotation

In this article, one of the main directions in the field of improving educational methods today is the introduction of interactive education and training methods, the student's work with evidence, rules, schemes, tables, examples of verbs according to the level of thinking: diagnose, prove, concepts such as measuring, controlling, justifying, approving, evaluating, checking, comparing, are discussed. At the same time, if the age, psychological characteristics, level of worldview, and life experiences of students are taken into account when using interactive methods, the effectiveness of the lesson will increase, which will allow teachers to acquire professional skills, competence, knowledge, sensitivity and intuition. will be considered.

Key words: Interactive learning, competence, knowledge, debate, independent thinking, taxonomy, thinking, subject, logic.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА ОНЛАЙН-УРОКАХ ДЛЯ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

В данной статье одним из основных направлений в области совершенствования методов обучения сегодня является внедрение интерактивных методов обучения и обучения, работа обучающегося с доказательствами, правилами, схемами, таблицами, примерами глаголов по уровню мышления: диагностировать, доказывают, обсуждаются такие понятия, как измерение, контроль, обоснование, одобрение, оценка, проверка, сравнение, сопоставление. При этом, если при использовании интерактивных методов учитывать возраст, психологические особенности, уровень мировоззрения, жизненный опыт учащихся, то эффективность урока повысится, что позволит педагогам приобрести профессиональные навыки, компетентность, знания, чувствительность и интуиция будут учитываться.

Ключевые слова: Интерактивное обучение, компетентность, знания, дискуссия, самостоятельное мышление, таксономия, мышление, предмет, логика.

INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN ONLAYN DARSLARDA FOYDALANISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kunda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilish, o'quvchining dalillar, qoidalar, sxemalar, jadvallar bilan ishlashlari, tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: tashxislash, isbotlash, o'lchash, nazorat qilish, asoslash, ma'qullash, baholash, tekshirish, solishtirish, qiyoslash kabi tushunchalar to'g'risida fikr yuritiladi. Shu bilan birga interfaol interfaol metodlarni qo'llashda o'quvchilarning yesh, psixologik xususiyatlari, dunyoqarash darajasi, hayotiy tajribalari inobatga olinsa, dars samaradorligi yanada oshishi, bu esa o'qituvchilardan kasbiy mahorat, malaka, bilimdonlik, sezgirlik va intuitsiyaga ega bo'lishlari to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Interfaol ta'lim, malaka, bilimdonlik, bahs-munozara, mustaqil fikrlash, taksonomiya, tafakkur, sub'ekt, mantiq.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki yillardanoq ta'lim-tarbiya sohasini takomillashtirishga alohida e'tibor qaralib kelinmoqda. Tarixan qisqa davr mobaynida mamlakatimizda bu sohada juda ulkan ishlar amalga oshirildi va bugungi kunda ham jadal davom ettirilmoqda. O'qitishning interfaol metodlarini ta'lim tizimiga joriy qilish zamonaviy kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda o'qituvchi uchun o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish va bilimga chanqoq yoshlar bilan to'la auditoriyaga katta hajmdagi bilimlarni berishning o'zi yetarli emas. O'tkazilgan ko'pgina tadqiqotlarning natijalariga ko'ra, o'qitishga yangicha qarash, talabalarni o'qitishda faol yondashuvlardan foydalanish bilim berishning eng samarali yo'llaridan biri hisoblanadi. Oddiy so'z bilan aytganda, talabalar o'quv jarayoniga faol jalb qilingandagina berilayotgan materiallarni oson idrok etadi, tushunadi va eslab qoladi. Shundan kelib chiqqan holda, bugungi kunda asosiy metodik innovatsiyalar o'qitishning interfaol metodlarini qo'llashni taqozo etadi.

Adabiyotlar sharhi. «Interfaol» tushunchasi ingliz tilidagi «interact»(rus tilida «interaktiv») so'zidan olingan bo'lib, lug'aviy nuqtai nazardan «inter» – o'zaro, ikki taraflama, «act» – harakat qilmoq, ish ko'rmoq kabi ma'nolarni anglatadi [1].

Interfaol ta'lim – ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim.

Interfaollik – ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklari.

Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy subektlarning suhbat (dialog), o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatni olib borishlarini ifodalaydi.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassis yaxshi biladiki, an'anaviy ta'lim ham suhbat (dialog)ga asoslangan va

bu suhbat quyidagi o'zaro munosabatlar shakllarida tashkil etiladi:

An'anaviy ta'limda ham tabiiy ravishda suhbat asosini axborot tashkil etadi. Ammo axborot uzatishning asosiy manbai o'qituvchining tajribasi bo'lib, bu jarayonda u yetakchilik, dominantlik qiladi, ya'ni u darsning asosiy vaqtida bilimlarni og'zaki tarzida o'quvchi (tinglovchi va kursant) larga yetkazib berishga intiladi. Faollik ko'rsatish o'qituvchigagina xos bo'lib, o'quvchi bu vaziyatda sust tinglovchi bo'lib qoladi. Ularning asosiy vazifasi o'qituvchini tinglash, zarur o'rinlarda yozish, savollar bilan murojaat qilinganida javob qaytarish, kam holatlarda (ruxsat etilganidagina) so'zlashdan iboratdir.

Eng muhimi, interfaol ta'lim va tarbiyani qo'llash orqali o'qituvchi o'quvchilarning aniq ta'limiy maqsadga erishish yo'lida o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo'naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo'lga kiritadi.

O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilar bilan ishlash jarayonida quyidagi imkoniyatlarga ega bo'ladi hamda o'quvchilarni ushbu yo'nalishlarga yo'naltiradi [2]:

guruh yoki jamoa bilan hamkorlikda ishlashlari; tengdoshlari orasida o'z g'oyalari erkin bayon qilishlari,

bilimlarini hech qanday ruhiy to'siqlarsiz namoyish etishlari; o'zlarini erkin tutishlari;

o'quvchilarning muammoni hal qilishga ijodiy yondoshuvlari;

guruh yoki jamoadoshlari bilan do'stona munosabatda bo'lishlari hamda ruhiy yaqinlikka erishishlari;

o'z ichki imkoniyat va qobiliyatlarini to'liq namoyon qila olishlari;

fikrlash, fikrlarni umumlashtirish va ular orasidan eng muhimlarini saralab olishlari;

o'z faoliyatini nazorat qilishlari va mustaqil baholashlari;

o'z imkoniyatlari va o'zlariga bo'lgan kuchga ishonch hosil qilishlari;

turli xil vaziyatlarda harakatlanishlari va murakkab vaziyatlardan mustaqil chiqa olish ko'nikmalarini o'zlashtirishlari

Interfaol metodlar, o'z mohiyatiga ko'ra, ta'lim yoki tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishda ma'lum darajada samaradorlikka erishishni ta'minlashda, biroq ularning har biri ta'lim yoki tarbiya jarayonida samaradorlikni ta'minlashda turli imkoniyatlarga ega. Shu sababli o'qituvchi (pedagog)lar interfaol metodlarni tanlashda o'rganilayotgan mavzu, muammo yoki hal qilinishi lozim bo'lgan masalaga e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, interfaol metodlarning samaradorligi ularni qo'llashda ta'lim oluvchi (o'quvchi, talaba, tinglovchi) larning yoshi, psixologik xususiyatlari, dunyoqarashi, hayotiy tajribalari inobatga olinsa, yanada oshadi. Bu o'qituvchi (pedagog)dan kasbiy mahorat, malaka, bilimdonlik, sezgirlik va intuitsiyaga ega bo'lishni taqozo etadi. Respublikada uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi (pedagog)lardan har bir interfaol metodning mohiyati, xususiyati, qo'llash shartlari bilan batafsil tanishib chiqish, amaliy ahamiyatini to'g'ri baholay olish talab qilinadi.

ADABIYOTLAR

1. Bukatov V.M. Didaktik o'yinlarning pedagogik marosimlari. – M., 2003. –152 b.
2. Panina T.S., Vavilova L.N. Ta'limni kuchaytirishning zamonaviy usullari: Darslik. – M., 2008. – 176 b.
3. Panfilova A.P. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. Faol ta'lim: o'quv qo'llanma. – M., 2009. – 192 b.
4. Innovatsion ta'lim dasturlarini amalga oshirishni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash / Ed. Y.P.Zinchenko, I.A.Voldarskaya. – M., 2007 yil. – 120 s.
5. Vaziyat tahlili yoki Case usulining anatomiyasi / Ed. Y.P.Surmina. - Kiev, 2002 yil. a. 286 b.
6. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: Darslik / Ed. N.V. Bordovskaya. – M., 2011. – 432 b.
7. Stupina S.B. Oliy ta'limda interfaol ta'lim texnologiyalari: Ta'lim metodi. nafaqa. – Saratov, 2009. – 52 b.
8. Tolipov O.K., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya asoslari // "Maktab va hayot" zhurnalig ilov. – T., 2003. – 32 b.

Natijalar. Chet tilini mukammal egallash til materiallarini qayta-qayta takrorlash asosida amalga oshiriladi, biroq bir xil mavzudagi nutq mashg'ulotlarini yil bo'yi har darsda takrorlash kerak emas. Har darsda bir xil mavzuda suhbatlashish o'quvchilar qiziqishini susaytiradi. Fasllar, oylar o'zgaranda, mamlakat hayotida yangi o'zgarishlar bo'lganda, bayramlar arafasidagi suhbat mavzulari ham o'zgarib boradi.

Masalan:

At the end of the week. Is everybody present? What's the date today?

Do you like Saturday (Sunday)?

What are you going to do at the weekend? Will you go in for any sports on Sunday? What will you do if the weather is good (bad)?

Do you always (usually) do your lessons on Sunday?

On the Eve of a Holiday (or Holidays) Everyone's present today, aren't they? What is the date today? What is the date tomorrow?

Will you come to school tomorrow? Why not? Where will you spend the holiday(s)?

What does your class (school, family) usually do during (for) the holiday(s)?

Are you going to go to the school(class) party?

What would you like to do during the holiday(s) ?

Do you like the holiday(s)? Why? What's your favorite holiday?

On the time-table. ... is absent today, I see. What has happened to...? What day of the week is it today ? Where are you from?

Xulosa va munozara. Xulosa qilib shuni aytilish mumkinki, darslarda yuqorida bayon qilingan interfaol usullardan foydalanib og'zaki nutq mashg'ulotlarini tashkil etish o'quvchilarning tilga hamda darsga bo'lgan qiziqishlarini yanada ortiradi. Og'zaki nutq mashg'uloti uchun oldingi darslarda o'tilgan til materiallari, iboralar, nutq namunalarini material sifatida olinadi, lekin mazmun notanish, yangi, qiziq ma'lumot beradigan bo'lishi zarur.

Bu usullardan foydalanayotganda o'quvchilarning talaffuzlari to'g'riligi nazorat qilib boriladi. Agar so'z xato talaffuz qilinsa, so'zning ma'nosi ham o'zgarib ketishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchilar gaplar, kichik hikoyalar, dialoglar tuzib gapirib berayotgan paytda ularning talaffuzlari to'g'ri bo'lishiga e'tibor qaratmog'i lozim.

Interfaol usullardan foydalangan holda dars o'tilsa, o'quvchilarning tilga hamda darsga bo'lgan qiziqishlari yanada ortadi. O'qituvchi yangi so'zlar va so'z birikmalarini o'rgatish orqali o'quvchilarning nutq ko'nikmalarini o'stirishi mumkin. O'quvchilar dars davomida yangi so'zlarning ma'nolarini ingliz tilida bayon qilib berishlari mumkin. Yoki notanish so'zni birinchi, uchinchi va to'rtinchi harflarini yozib, qolgan harflarini topish topshirig'ini berish orqali ularning so'z boyliklarini boyitish hamda xotiralarini yaxshilash mumkin. Shu so'zlar ishtirokida mikrodialoglar tuzilsa, o'quvchilar uchun qiziqarli bo'ladi va og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga turtki bo'ladi.

Turli mavzudagi suhbatlar o'quvchilar qiziqishlarini oshirib, darslarda faol qatnashishlarini taminlaydi.